



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

O‘ZBEK IMO-ISHORA TILI LEKSIK BIRLIKLARINING SINKRETIZMI VA TAMOYILLARI

Adilova Noiba Marifovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti o’qituvchisi
Tel: +998909810013

Uralova Nilufar Xaydarqul qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti
surdotarjimon yo‘nalishi 101-guruh talabasi
Tel: +998952201411

Tayanch so‘zlar: Sinkretizm, leksika, semantik moslashuv, sintaktik moslashuv, abstrakt, kommunikatsiya, lingvistika, grammatik kategoriyalar, kontekst.

Annotatsiya / Abstrakt

Uz. Sinkretizm — turli elementlarning birlashuvi yoki uyg‘unlashuvi jarayonidir. O‘zbek imo-ishora tili leksik birliklarining sinkretizmi tamoyillari ushbu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, ya’ni imo-ishoralarning ma’no jihatdan ko‘p funktsionalligini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek imo-ishora tilidagi sinkretizm imo-ishoralar tarkibida bir vaqtning o‘zida bir necha ma’no va vazifalarning uyg‘unlashuvi orqali ifodalanadi.

Рус. Синкретизм-это процесс объединения или гармонизации различных элементов. Принципы синкретизма лексических единиц узбекского жестового языка играют важную роль в изучении особенностей данного языка, а именно многофункциональности жестов в смысловом отношении. Синкретизм в узбекском жестовом языке выражается в сочетании в структуре жестов сразу нескольких значений и задач.

English. Syncretism is the process of Fusion or harmonization of various elements. The principles of syncretism of the lexical units of Uzbek sign language play an important role in the study of the peculiarities of this language, namely the multi-

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

functionality of gestures in terms of meaning. Syncretism in Uzbek sign language is expressed through the combination of several meanings and tasks at the same time in the structure of gestures.

O‘zbek imo-ishora tili – O‘zbekistonda eshitish va talaffuzida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun asosiy kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Ushbu tilning o‘ziga xosligi undagi imo-ishoralar orqali ma’no ifodalanishining sinkretik tarzda aks etadi. Sinkretizm – bu bir leksik birlik yoki imo-ishoraning bir vaqtning o‘zida bir necha ma’no yoki vazifani bajarishi holati bo‘lib, u imo-ishora tilining boy va chuqur imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu maqola imo-ishora tilining sinkretizmiga bag‘ishlanib, u til birliklarining funksional imkoniyatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Imo-ishora tili va leksik birliklar:

Imo-ishora tili, lingvistika nuqtai nazaridan, alohida grammatik va leksik tizimga ega. Unda: So‘zlar o‘rnini bosuvchi imo-ishoralar: Bunda imo, yuz ifodasi va tana harakatlari asosiy rol o‘ynaydi.

Leksik birliklar: Har bir imo-ishora alohida ma’no anglatadi va ular gaplarni hosil qilishda qatnashadi. Misol: barmoq bilan “yurak” joyiga ishora qilish – muhabbatni ifodalashi mumkin:



Sevgi yoki muhabbat

Sinkretizm tushunchasi:

Sinkretizm — bu turli yoki bir-biriga qarama-qarshi elementlarning birlashtirilishi, ularning bir joyda jamlanishi yoki bir holatda uyg'unlashuvi jarayonidir. Bu so'z ko'pincha ilmiy, madaniy yoki lingvistik kontekstda ishlatiladi. Asosan, sinkretizmga qarshi turgan g'oya esa, turli tizimlarning, shakllarning yoki elementlarning o'zaro alohidaligi va ajralishidir.



**Lampa va yorug'lik
so'zlari uyg'unlashuvi.**

Lingvistikada sinkretizm, turli til tizimlarining, grammatik kategoriyalarining yoki leksik birliklarning birlashtirilishi sifatida talqin qilinadi. Sinkretizm, ma'lum bir grammatik yoki leksik element bir nechta ma'no yoki funktsiyani o'z ichiga oladi. Bu elementlar, bir-birini to'ldiradigan yoki o'rnini bosadigan tarzda birlashtirilgan bo'ladi.



+ =

OSHXONA

Sinkretizm tushunchasi imo-ishora tilida:

O'zbek imo-ishora tilidagi leksik birliklarning sinkretizmi — bu tilning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, imo-ishoralarning bir nechta ma'nolarni yoki grammatik funktsiyalarni bir vaqtning o'zida ifodalashiga imkon beradi. Bu xususiyat imo-ishora

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

tilini juda boy va murakkab qilib, tilning mazmun jihatdan yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Sinkretizm tilni samarali va qisqa vaqt ichida turli xil tushunchalarni ifodalash imkoniyatini yaratadi. Bunda imo-ishoralarning o'zaro bog'lanishi va bir nechta grammatik funksiyalarni bajarish xususiyati mavjud. Bu tilni o'zaro aloqa o'rnatishda yanada qulayroq va ko'proq moslashtiradi.

Masalan, imo-ishoralar bitta harakat orqali bir nechta narsalarni ifodalashi mumkin:



Dazmol=Dazmollash

Sinkretizm imo-ishora tilida asosiy tamoyillari shunday uchraydi:

1. Polisemantiklik (ko'p ma'nolilik)

Bitta imo-ishora bir nechta ma'noni ifodalashi mumkin. Bu, odatda, kontekstga bog'liq:

Masalan, qo'lning 1 konfiguratsiya shaklida harakati bir vaqtda "xafa", "vijdon" yoki "kamtar" ma'nolarini bildirishi mumkin.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

2. Semantik moslashuv

Imo-ishoralar kontekstdan kelib chiqib turli ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi: Bir imo bir vaqtning o'zida ot (narsa yoki hodisa) va fe'l (harakat) ma'nosini ifodalay oladi. Masalan, "bormoq" harakati biron harakatni, yoki natijani anglatadi

3. Sintaktik moslashuv

O'zbek imo-ishora tilida bir imo-ishora bir vaqtning o'zida turli grammatik vazifalarni bajara oladi:

"Kelmoq" imo-ishorasi fe'l sifatida ham, buyruq shaklida ham ishlatilishi mumkin.



4. Tasviriy va abstrakt uyg'unlik

Tasviriy imo-ishoralar real ob'ekt yoki harakatni ifodalasa, ular bir vaqtda abstrakt tushunchalarni ham anglashi mumkin:

Masalan, yurak joylashgan joyga qo'lni qo'yish bir vaqtning o'zida "sevgi" va "sevmok" ma'nosini ifodalashi mumkin.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

5. Sinkretizm tamoyillarining afzalliklari

Leksik moslashuvchanlik: Cheklangan imo-ishoralar bilan ko‘p fikrni ifodalash imkoniyati.

Masalan bir ishora bilan ko‘plab so‘zlarni ko‘rsatib bera olish:



Bu birgina ishora - “Fikr”, “Ma’no”, “Mulohaza” so‘zlarni anglatadi.

Yuqori muloqot samaradorligi: Bitta imo bilan ko‘p ma’lumotni yetkazish osonlashadi.

Ya’ni bir ishorani turli xil kontekstda turli ma’noga o‘zgarishidir.



Masalan:

Bu ishora ba’zi joylarda “ Xotira”, “ Qotib qolmoq”, “Esda tutmoq” “ Haykal” va boshqa ma’nolarni anglatishi mumkin.

Muloqot iqtisodiyoti: Ortiqcha imo-ishoralarsiz fikrni qisqa va to‘liq ifodalash imkoniyati.

Masalan: “Men ko‘chani supurgi bilan supurdim”. Bu yerda “supurgi” va “Supurish” so‘zlari takror kelganda bu usul juda ish beradi.



Masalan:
dim.

O'zbek imo-ishora tilidagi sinkretizm tamoyillari imo-ishoralarning ko'p ma'noliligini, kontekstual moslashuvchanligini va turli vazifalarni birgalikda bajarishini ko'rsatadi. Bu tamoyillar O'zbek imo-ishora tilini samarali muloqot vositasiga aylantiradi va uning leksik tizimini boyitadi.

Sinkretizmning leksik birliklardagi ifodasi:

a) Qo'shma imo-ishoralar

Bir necha elementning birlashuvi orqali hosil bo'lgan imo-ishoralar:

Masalan, "ish" va "qiyinchilik" ma'nosini ifodalaydigan imo-ishoralar bir imo sifatida qo'llaniladi.



b) Ikkiyuzlama ma'no

Bir imo bir vaqtda bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki ma'noni anglatishi mumkin:

Masalan, "osmon" imo-ishorasi "cheksizlik" va "yuksaklik"ni anglatadi.



c) Abstrakt va hissiy ma'nolar birligi

Tasviriy imo-ishora orqali hissiy yoki abstrakt ma'nolar ham ifodalanadi:

Yurak shaklidagi imo-ishora "sevgi" yoki "muhabbat"ni ifodalay oladi.

Shunday qilib, imo-ishora tilining sinkretizmiga asoslanib, biror imo-ishora turli ma'no va grammatik funksiyalarni o'z ichiga olgan holda ishlatiladi. Bu esa tilning an'anaviy so'zli tildan farq qilishiga olib keladi va tilni o'rganishda yoki ishlatishda kontekstning o'ta muhimligini ta'kidlaydi.

Sinkretizmning yana bir turi – bu imo-ishora tili birliklarining morfologik sinkretizmi. Bunda, imo-ishora tilidagi belgilarning bir necha grammatik xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, imo-ishora tilida ko'plab harakatlar, pozalar va qo'llar holati orqali bir nechta grammatik kategoriyalarni (masalan, shaxs, son, vaqt) ifodalash mumkin.

Sinkretik imo-ishoralarni tahlil qilish uchun quyidagi misollar keltirilishi mumkin:

Qo'lni o konfiguratsiyasida chakkaga urish: Bir vaqtning o'zida “eslash” yoki “qasos”ni anglatishi mumkin.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Lingvistik tahlil shuni ko'rsatadiki, sinkretizm imo-ishora tilining universalligini oshiradi, chunki har bir imo turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda moslashuvchan ma'no kasb etadi.

Madaniyat va imo-ishora

O'zbek milliy madaniyati imo-ishoralarga katta ta'sir ko'rsatgan.

Masalan: "Qo'l ko'tarib salomlashish"



– o'zbek an'anasida hurmatni anglatadi.

"Qo'lni ko'ksiga qo'yish"



– samimiy minnatdorchilikni bildiradi.

Bu imo-ishoralarning sinkretik xususiyati ular ma'no jihatidan boyib, madaniy meros bilan bog'lanib ketishida namoyon bo'ladi.

O'zbek imo-ishora tilining sinkretizmi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Uning ko'p ma'noliligi va ko'p funksiyaliligi imo-ishora tilidan samarali foydalanishga imkon beradi. Kelgusida imo-ishora tilini ilmiy o'rganish, qo'llanma va lug'atlar yaratish orqali bu boy merosni rivojlantirish zarur.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidova M.U. “Maxsus pedagogika”.
2. Mo‘minova L.R., Amirsaidova M.Sh, Mamarajabova Z.N, Hamidova M.U, Yakubjanova D.B, Djalolova Z.M , Abidova N.Z. “Maxsus psixologiya”.
3. Nazarov Q , Egamberdiyev B. “O‘zbek tili ishora imlo qoidalari”.
4. Xolmanova Z. “ Tilshunoslik nazariyasi”.
5. Abdujalova M. “ Sinkretizm-lingvistik hodisa sifatida”.
6. Temirov B. “O‘zbek imo-ishora tili va muloqot”
7. Fradkina R.N. “ Govoryashie ruki”.